ISSN: 2181-1385
Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
DOI: 10.24412/2181-1385-2021-6-381-387

FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA *APHIS PUNICAE* PASSERINI, 1863 SHIRASINING BIOLOGIYASI VA HAYOTIY SIKLI

Moxidabonu Abduvoxid qizi Masodiqova
Farg‘ona davlat universiteti biologiya kafedrasi tadqiqotchisi

Gulnoraxon Mamadjonovna Zokirova
Farg‘ona davlat universiteti biologiya kafedrasi tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Aphis punicae Passerini, 1863 turi anorga moslashgan monofag tur bo‘lib, hosilning 30-35% gacha kamayishiga olib keladi. Tadqiqotlar davomida uning biologiyasi va hayotiy sikllari to‘liq o‘rganildi. Farg‘ona vodiysi sharoitida anor shirasi asoschi lichinkalarining dastlabki rivojlanishi aprel oyining birinchi yarmidan boshlanadi. Mavsum davomida uning populyatsiya miqdor zichligi bahorgi-yozgi va kuzgi ko‘tarilishlarni namoyon etadi. Oktyabr-noyabr oylarida otalangan tuxumlarini novdalarga, kurtaklar yaqiniga qo‘yadi. Farg‘ona viloyati sharoitida anor shirasi tuxum holatda qishlab chiqadi va bir yilda 12 avlod beradi.

Kalit so‘zlar: *Aphis punicae*, anor, monofag, asoschi, tirik tug‘uvchi urg‘ochi, biologiya, hayotiy sikl, Farg‘ona vodiysi.

ABSTRACT

Aphis punicae Passerini, 1863 is a monophagous species adapted to pomegranate, which reduces yields by 30-35%. Biology and life cycle of *A.punicae* were studied in detail during the research. The first development of pomegranate juice founding larvae in conditions of Fergana valley begins in the first half of April. During the season, its population density reflects the spring-summer and autumn rises. In October-November, they lay their eggs on twigs near the buds. In the Fergana region, pomegranate aphid overwinters as an egg and produces 12 offspring a year.

Keywords: *Aphis punicae,* pomegranate, monophagous, founder, viviparous female, biology, life cycle, Fergana Valley.